

TURISTIK KLASTERLARNI TASHKIL ETISH MEKANIZMI VA UNI JIZZAX VILOYATIDA QO‘LLASH IMKONIYATLARI

Mamadiyurov Adhamjon Qo‘chqar o‘g‘li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21903109>

Annotatsiya. Tezisdagi turistik klasterlarni tashkil etish va ularga turistik klaster maqomini berish mexanizmi tahlil qilingan. Klasterning nazariy mohiyati, O‘zbekistonda amaldagi huquqiy tartib hamda maqom uchun qo‘yiladigan talablar yoritilgan. Mexanizmni Jizzax viloyati sharoitida qo‘llash imkoniyatlari va istiqbolli yo‘nalishlari asoslangan.

Kalit so‘zlar: turistik klaster, klaster maqomi, klasterli yondashuv, turizm mexanizmi, hududiy turizm, Jizzax viloyati.

Аннотация. В тезисе проанализирован механизм создания туристских кластеров и присвоения статуса туристского кластера. Раскрыты теоретическая сущность кластера, действующий в Узбекистане правовой порядок и требования для получения статуса. Обоснованы возможности и перспективные направления применения данного механизма в условиях Джизакской области.

Ключевые слова: туристский кластер, статус кластера, кластерный подход, механизм туризма, региональный туризм, Джизакская область.

Abstract. The paper analyzes the mechanism of creating tourism clusters and granting tourism cluster status. It reveals the theoretical essence of a cluster, the current legal procedure in Uzbekistan and the requirements for obtaining the status. The possibilities and prospective directions of applying this mechanism in the conditions of the Jizzakh region are substantiated.

Keywords: tourism cluster, cluster status, cluster approach, tourism mechanism, regional tourism, Jizzakh region.

Kirish. Zamonaviy turizm iqtisodiyotida hududiy raqobatdoshlikni oshirishning samarali vositalaridan biri klasterli yondashuv hisoblanadi. Klaster nazariyasini asoslab bergan M. Porter ko‘rsatganidek, o‘zaro bog‘liq korxonalarining hududiy jamlanishi umumiy unumdorlikning oshishi, xarajatlarining kamayishi va innovatsiyalarning tezlashuviga olib keladi [6. 1998:B.10].

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasini amalga oshirishga oid davlat dasturida turistik klasterlarni tashkil etish tartibi va ularning huquqiy maqomini belgilash strategik ustuvor vazifa sifatida nazarda tutilgan [1. 2024:B.176]. Ushbu siyosatning amaliy-huquqiy asosi bir qator qarorlar bilan shakllantirildi. Xususan, Prezidentning 2024-yil 12-yanvardagi PQ-21-son qarori bilan muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, tog‘li va cho‘l hududlar hamda suv obyektlari zonalarida turistik klasterlar tashkil etish siyosati ma‘qullandi [2. 2024:B.1]. Mazkur siyosat doirasida 2024-yil 30-dekabrda qabul qilingan Vazirlar Mahkamasining 915-son qarori bilan turistik klaster maqomini berishning aniq huquqiy tartibi joriy etildi [4. 2024:B.1]. Ushbu mexanizmni Jizzax viloyati kabi boy tabiiy-rekreatsion salohiyatga ega hududlarda qo‘llash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Turistik klaster: tushuncha va nazariy asoslari. Turistik klaster – muayyan hududda joylashgan va yagona turistik mahsulot yaratish maqsadida o‘zaro hamkorlik qiluvchi korxonalar, tashkilotlar hamda tadbirkorlar majmuidir. Iqtisodiy adabiyotda klaster o‘zaro bog‘liq va bir-birini to‘ldiruvchi subyektlarning geografik jamlanmasi sifatida talqin qilinadi [6. 1998:B.10]. Turizm sohasida klaster turoperatorlar, joylashtirish vositalari, transport, ovqatlanish, ekskursiya va qo‘shimcha xizmat ko‘rsatuvchilarni birlashtiradi [5. 2007:B.53]. Bunday hamkorlik natijasida turistik mahsulotning sifati oshadi, xizmatlar uzluksizligi ta‘minlanadi va hududning umumiy jozibadorligi kuchayadi.

Mahalliy ilmiy adabiyotda ham turizm mahsuloti va xizmatlari, turizm industriyasi hamda uni hududiy tashkil etish masalalari hududlarning turistik salohiyatini ro‘yobga chiqarishning muhim omili sifatida qaraladi [7. 2014:B.162]. Bu esa klasterli yondashuvning O‘zbekiston sharoitida qo‘llanilishi uchun zarur nazariy zamin mavjudligini ko‘rsatadi.


Turistik klasterlarni tashkil etish mexanizmi. O‘zbekistonda turistik klasterlarni tashkil etish tartibi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-dekabrda 915-son qarori bilan tasdiqlangan Nizom asosida amalga oshiriladi [4. 2024:B.1]. Nizomga ko‘ra, turistik klaster – kompleks turistik xizmatlar hamda turist va ekskursantning ehtiyojlarini qondirish uchun zarur qo‘shimcha xizmatlar ko‘rsatuvchi yuridik shaxslar va

yakka tartibdagi tadbirkorlar majmui sifatida ta’riflanadi. Klaster faoliyatining asosini “turoperator – mehmonxona – transport – savdo va servis” xizmatlari zanjiri tashkil etadi (1-rasm).

Asosiy xizmat zanjiri (majburiy)



Maqom uchun qo’shimcha majburiy shartlar



1-rasm. Turistik klaster tarkibi va maqom uchun majburiy shartlar

Manba: muallif tomonidan [4] asosida tuzilgan.

Klaster maqomini olish uchun bir qator majburiy talablar belgilangan: klaster hududida kamida 40 nafar mehmon uchun mo’ljallangan joylashtirish vositasi bo’lishi; mahalliy hunarmandchilik (esdalik) mahsulotlari savdo nuqtasi mavjudligi; turizmning kamida bir turi – ekologik, agro, etnografik, madaniy-tarixiy, rekreatsion yoki sog’lomlashtirish – tashkil etilganligi; turistlar xavfsizligi ta’minlanganligi; ko’ngilochar xizmatlar (ot, qayiq, velosiped va boshqalar ijarasi) hamda onlayn band qilish imkoniyati mavjudligi shular jumlasidandir [4. 2024:B.3].

Maqom berish vakolati Turizm qo’mitasiga yuklatilgan. Tadbirkor elektron yoki pochta orqali ariza topshiradi; maxsus komissiya arizani ko’rib chiqib, hududiy boshqarma turistik obyektni joyiga chiqib o’rganadi va xulosa tayyorlaydi. Nizomda jarayonning har bir bosqichi qat’iy muddatlar bilan chegaralangan bo’lib, obyektni o’rganishdan guvohnoma taqdim etishgacha bo’lgan jarayon jami 18 ish kunidan oshmaydi [4. 2024:B.4]. Talablarga javob bergan klasterga maqom to’g’risidagi guvohnoma beriladi va u turistik klasterlar reyestriga kiritiladi; xizmat bepul ko’rsatiladi [4. 2024:B.5].

Mexanizmni Jizzax viloyatida qo’llash imkoniyatlari. Jizzax viloyati turistik klasterlarni shakllantirish uchun zarur tabiiy-rekreatsion va madaniy resurslarga ega. Viloyatning turli hududlari, o’ziga xos resurs bazasiga ko’ra, Nizomda belgilangan har xil klaster turlari uchun nomzod hisoblanadi (1-jadval).

Zomin tumani Turkiston tizmasidagi tog’ iqlimi, archa o’rmonlari va sanatoriya bazasiga tayanib sog’lomlashtirish hamda rekreatsion turizm klasterini shakllantirishga mos keladi. Forish tumani Nurota tog’lari, buloqlar va qishloq turmush tarzi hisobiga ekologik va agroturizm klasteri uchun imkoniyat yaratadi. Aydar-Arnasoy ko’llari tizimi suv havzasi va sohil resurslari bilan ko’l ekoturizmi klasteri uchun asos bo’ladi. Bunda hudud ekotizimlarining o’ta nozikligini hisobga olib, klaster faoliyatini geoeologik optimallashtirish tamoyillari asosida tashkil etish lozim. Viloyatning markaziy qismida joylashgan Sharof Rashidov tumani esa tarixiy-madaniy obyektlar va transport tuguni sifatida madaniy-tarixiy hamda tranzit turizm klasterini rivojlantirishga xizmat qilishi mumkin.

Bu yo’nalishlar hududiy dasturlarda ham o’z aksini topgan: 2026–2027-yillarga mo’ljallangan dasturda Arnasoy, Baxmal, Zafarobod, Forish va Sharof Rashidov tumanlarida beshta yirik turizm kompleksini barpo etish, turizmga ixtisoslashgan 25 ta mahallada turizm xizmatlarini rivojlantirish, Zomin

tumanida 81,7 gektar maydonda turistik zona hamda Aydar-Arnasoy ko‘llari bo‘yida jami 300 gektardan ortiq maydonda turizm obyektlarini tashkil etish nazarda tutilgan [3. 2026:B.3].

Ular respublika darajasida ham e’tirof etilgan: PQ-21-son qaror ilovalarida Zomin davlat qo‘riqxonasi hamda Zomin milliy tabiat bog‘i ekoturizm xizmatlari yo‘lga qo‘yiladigan hududlar ro‘yxatiga, Arnasoy suv ombori va Aydarko‘l plyaj hamda suvda dam olish turizmi tashkil etiladigan yirik suv havzalari ro‘yxatiga, Zomin, Forish va Baxmal tumanlari esa dor yo‘llari qurilishi rejalashtirilgan hududlar ro‘yxatiga kiritilgan [2. 2024:B.16].

1-jadval. Jizzax viloyatida turistik klaster shakllantirish imkoniyatlari (hududlar kesimida)

Hudud (tuman/zona)	Asosiy resurs bazasi	Mos klaster turi (915-son qaror bo‘yicha)
Zomin tumani	Tog‘ iqlimi, archa o‘rmonlari, sanatoriya bazasi	Sog‘lomlashtirish (rekreatsion) turizm klasteri
Forish tumani	Nurota tog‘lari, buloqlar, qishloq turmush tarzi	Ekologik va agroturizm klasteri
Aydar-Arnasoy ko‘llari	Suv havzasi, qumli sohil, baliqchilik resurslari	Ekologik (ko‘l) turizm klasteri
Sharof Rashidov tumani	Tarixiy-madaniy obyektlar, transport tuguni	Madaniy-tarixiy va tranzit turizm klasteri

Manba: muallif tomonidan [3; 4] asosida tuzilgan.

Muammolar va takliflar. Shu bilan birga, mexanizmni amalda qo‘llashda bir qator cheklovlar mavjud.

Birinchidan, chekka tog‘li va ko‘l hududlarida kamida 40 o‘rinli joylashtirish vositasi hamda uzluksiz transport xizmatini ta‘minlash qiyinchilik tug‘diradi; buni davlat-xususiy sheriklik asosida infratuzilmani rivojlantirish va mahalliy tadbirkorlarni rag‘batlantirish orqali yumshatish mumkin.

Ikkinchidan, klaster ishtirokchilari o‘rtasida muvofiqlashtiruvchi tashkiliy bo‘g‘in yetishmasligi sezilarli bo‘lib, buni bartaraf etishda destinatsiya menejmenti tuzilmasini joriy etish maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, tog‘ va ko‘l klasterlariga xos mavsumiylik yil davomida turistlar oqimi va daromadning notekisligiga olib keladi; bunda qishki (chang‘i, sanatoriya) hamda madaniy-tadbir yo‘nalishlarini rivojlantirish orqali mavsumni uzaytirish samara beradi.

To‘rtinchidan, sohada malakali kadrlar – gid, menejer va servis xodimlari – taqchilligi xizmat sifatini cheklaydi, shuning uchun mahalliy ta‘lim muassasalari bilan hamkorlikda maqsadli kadrlar tayyorlashni yo‘lga qo‘yish zarur.

Beshinchidan, klasterlarning marketingi va raqamli tanilishi (onlayn band qilish, xalqaro platformalarda ilgari surish) hali sust bo‘lib, yagona hududiy turistik brend va raqamli targ‘ibotni shakllantirish talab etiladi.

Nihoyat, ekologik jihatdan nozik hududlarda – ayniqsa Aydar-Arnasoy ko‘llari va Zomin qo‘riqxonasida – turistik yuklama tabiiy ekotizimlarga tahdid solishi mumkin; shu bois klaster faoliyatini rekreatsion sig‘im me‘yorlari va ekologik muvozanatni saqlagan holda tashkil etish lozim.

Xulosa. Turistik klasterlarni tashkil etishning amaldagi mexanizmi – maqom berishning aniq mezonlari, qisqa muddatli hamda bepul rasmiylashtirish tartibi va yagona reyestr orqali – hududiy turizmni tizimli rivojlantirish uchun huquqiy va tashkiliy asos yaratadi. Jizzax viloyati boy tabiiy-rekreatsion va madaniy resurs bazasi hisobiga bir nechta ixtisoslashgan klasterlarni – sog‘lomlashtirish (rekreatsion), ekologik-agro, ko‘l ekoturizmi hamda madaniy-tarixiy yo‘nalishlarda – shakllantirish imkoniyatiga ega. Ushbu yo‘nalishlar hududiy dasturlar va respublika darajasidagi normativ hujjatlarda ham o‘z aksini topgani ularni amalga oshirishning real zaminini mustahkamlaydi. Shu bilan birga, chekka tog‘li va ko‘l hududlarida joylashtirish quvvati, uzluksiz transport xizmati hamda ishtirokchilarni muvofiqlashtirish masalalari asosiy cheklovlar bo‘lib qolmoqda. Umuman, mexanizmning samaradorligi infratuzilma, malakali kadrlar va boshqaruv tizimini muvofiq ravishda rivojlantirishga bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son Farmoni “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-yanvardagi PQ-21-son qarori “O‘zbekiston Respublikasida ekologik turizmni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 30-yanvardagi PQ-35-son qarori “2026–2027-yillarda Jizzax viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni jadallashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-dekabrdagi 915-son qarori “Turistik klasterlar faoliyatini tashkil etish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”.

5. Александрова А.Ю. Туристские кластеры: содержание, границы, механизм функционирования // Современные проблемы сервиса и туризма. – 2007. – №1. – С. 51-61.

6. Porter M.E. The Adam Smith Address: Location, Clusters, and the “New” Microeconomics of Competition // Business Economics. – 1998. – Vol. 33, No. 1. – P. 7-13.

7. Tuxliyev I.S., Hayitboyev R., Safarov B.Sh., Tursunova G.R. Turizm asoslari. Darslik. – T.: Fan va texnologiya, 2014. – 332 b.